

**MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIKNING TUTGAN O'RNI**

**Kurbanova Aziza Begmamat qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

azizkakurbanova2@gmail.com

+998990532721

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 11.06.2025*

*Revised: 12.06.2025*

*Accepted: 13.06.2025*

**ANNOTATSIYA:**

**KALIT SO'ZLAR:**  
*bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik sub'yektlari, aholi bandligi, yangi iqtisodiy islohotlar, kichik tadbirkorlik.*

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri — kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi atroflicha tahlil qilingan. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, zamonaviy bozor talablariga moslashuvchanligi va innovatsiyalarni joriy etishdagi ustunliklari yoritilgan. 2023-yilgi statistik ma'lumotlar asosida kichik korxona va mikrofirmalar sonining kamayishi, ularning YaIMdagi ulushining pasayishi kabi holatlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, dunyo tajribasi asosida O'zbekistonda ushbu sohaga berilayotgan e'tibor, ishlab chiqilgan strategiyalar va yo'l xaritalarining iqtisodiy o'sishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Maqola yakunida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilib, ushbu sohaning barqaror iqtisodiy taraqqiyotdagi muhim o'rni ta'kidlangan.

**KIRISH.** Hozirgi kunda davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning isloh yo'nalishlaridan biri mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Kichik biznes jamiyat hayotining barcha


ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi. O‘zbekiston o‘zining yangi iqtisodiy islohotlar yo‘lini joriy etish va bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlarini keng rivojlantirib, o‘zining qonun qoidalariga suyangan holda tadbirkor, ishbilarmon va biznesmen kishilarga qulay shart-sharoit yaratib berishga intilmoqda.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati o‘zini erkin iqtisodiy sharoitda qaror topishini isbotladi. Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini muayyan bilimlarga asoslanib tavakkal qilingan va shaxsiy mulk ishtirok etgan faoliyat turi sifatida qarash mumkin. Soddaroq aytganda, tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining bosh bo‘g‘inini tashkil etadi, ya’ni tadbirkorlikning qaror topishi natijasida alohida pul daromadlari shakllanadi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun turli usullar bilan qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. Bu bilan nafaqat aholining pul daromadlarini oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish – mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini izchil davom ettirishda asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari xilma-xil bo‘lib, ular orasida o‘zining xo‘jalik yuritish ko‘lamini cheklanganlik bilan ajratib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi.

#### **1-rasm. 2023-yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**



**dinamikasi, ming birlikda.<sup>59</sup>**

2023-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 417,2 mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 58,2 mingtaga kamayganlikni yoki 12,3 % ga kamayganlikni ko‘rsak bo‘ladi. Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 14,2 birlikni tashkil qiladi.

2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 417 216 tani, shundan yangi tashkil etilayotganlari 23 230 tani tashkil etdi.

2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Toshkent shahrida 82 237 tani yoki jamiga nisbatan 19,7 % ni tashkil etadi.

**1-jadval. Hududlar bo‘yicha 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda**

2022-yil	Hududlar	2023-yil
96 750	Toshkent shahri	82 237
45 079	Toshkent	38 665
42 762	Samarqand	37 862
41 074	Farg‘ona	36 143
32 257	Qashqadaryo	32 688
36 641	Andijon	27 230
27 952	Buxoro	25 775
29 526	Namangan	24 488
22 464	Xorazm	22 114
25 174	Surxandaryo	21 526
21 049	Navoiy	20 278
20 399	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19 376
20 236	Jizzax	17 433

<sup>59</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi – stat.uz

14 102

Sirdaryo

11 01

Agar dunyo tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik korxonalar soni kamayib, kichik korxonalar soni keskin o'sdi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashib, innovatsiyalarni o'zlashtirishda ilg'or bo'lib bormoqda. Bozor dinamikasi va o'zgarishlariga bu tahlit moslashish tadbirkorlikning rivojlanishiga katta hissa qo'shamoqda. So'nggi yillarda kichik biznesning o'sishi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ham o'z aksini ko'rsatyapti. Shu bois, mamlakatimizda rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilyapti. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mahalliy ehtiyojlarni to'liq qoplash va mahsulotlarni eksport qilishdagi ahamiyati hisobga olinib, mazkur sektorni rivojlantirish bo'yicha strategiya va yo'l xaritalari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilayapti. Bu jarayonlarning barchasi iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

## **2-jadval. 2018-2023- yillarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi**

Yillar	Qiymat (foizda)
2018	48,9
2019	46,0
2020	47,0
2021	46,7
2022	44,5
2023	43,7

2023-yil 1-choragidagi YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi 43,7 % ni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 0,8 punktga kamaygan. Kamayishning asosiy sababi, yirik tadbirkorlik sub'yektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish va tekshiruvlarni qisqartirish;
- tadbirkorlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish;
- bank-tadbirkor aloqalarini soddalashtirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishini ta'minlaydi. Aholi bandligini ta'minlashdagi mazkur

sohaning ahamiyati soha uchun yanada e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tarkibiy o'zgarishlar, imkoniyat va imtiyozlarni muntazam amalga oshirish har jihatdan mamlakat iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi – stat.uz
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish. D.Sobirjonova, U.Boymatova, F.Bozorova
3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. M.M.Abduraxmonova